

**DRAMA ORQALI MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDAN HABARDOR BO'LISH**

Tojikarimova Moxiraxon Anvarjon qizi

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi 2-kurs talabasi

moxiratojikarimova660@gmail.com

Hasanova Mumtozbegim Muhiddin qizi

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz drama va ma'naviyat sarchashmasidan va bundan tashqari adabiyotning tasir kuchi nimada u nimalar bilan bog'liq ekanligi aktyorlik sa'nati haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Aktyor, sa'nat, musiqa ta'sviriy sa'nat, so'z sa'nati, piyesa libretto.

Abstract: Through this article, you will get a brief overview of the art of drama and spirituality, as well as the influence of literature and what it is related to.

Key words: Actor, art, music, fine art, speech art, play libretto.

Абстрактный: В этой статье вы получите краткий обзор драматического искусства и духовности, а также влияния литературы и того, с чем она связана.

Ключевые слова: Актер, искусство, музыка, изобразительное искусство, искусство речи, либретто пьесы.

KIRISH: Adabiyot so'z san'atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg'ashga, ularni so'z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng oliy daraja, yuksak pog'on alarga chiqa oladigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan bo'ladi. Adabiyot — so'z san'ati. Ammo san'at turlari nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs va badiiy adabiyot san'atning turlarini tashkil qiladi. Ularning barchasida yuksak badiiy ta'sirchan obrazlar yaratish ko'zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga turli-tuman yo'llar Masalan, raqs harakatlar, tana a'zolarining ifoda imkoniyatlariga tayanadi. Musiqa tovushlar uyg'unligiga, tovushlarning hissiy ifodasiga bog'liq. Tasviriy san'at uchun ranglarning o'zaro mutanosibligi alohida ahamiyat kasb etadi. Rassomga bo'yoq va mo'yqalam yordam beradi. Haykaltaroshga esa xom material (tosh ganch,

yog'och, metall)ga ishlov berish orqali go'zallik yaratadi. Adabiyot



esa bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos imkoniyatlari bilan namoyon bo'ladi.

ASOY QISM: Adabiyotning ta'sir kuchi nimada? U nimalarga bog'liq? Buning uchun yirik so'z san'atkorlari yaratgan ko'plab durdona asarlarning xalq orasida alohida hurmat va e'tibor qozonganligini eslash joiz. Yusuf Xos Hojib XI asrda 1069-70- yillarda "Qutadg'u bilig" dostonini yozib tugatadi va uni qoraxoniy hukmdorlardan Tabg'ach Bug'ro Qoraxon Abu Ali Hasan binni Arslonxonga taqdim etadi. Hukmdor adibga mamlakatdagi eng yuqori mansablardan biri — Xos Hojiblikni beradi. Xos Hojib "eshik og'asi" demakdir. Hozirgi tilimizda u "ish boshqaruvchi"ga to'g'ri keladi. Yana bir misol. Alisher Navoiy "Xamsa" dostonini tugatgach, uni Husayn Boyqaroga sovg'a sifatida topshiradi. Husayn Boyqaro butun a'yonlari oldida Navoiyni o'z "pir'i deb e'lon qiladi va shoirni otga mindirib, o'zi xalq oldida unga jilovdorlik qiladi. Bu mamlakat podshosining buyuk iste'dod egasiga, so'z san'atkoriga nisbatan hurmat va e'tirofi ramzi edi. O'zbek xalqining ijodkorlarga nisbatan alohida hurmat va ehtiromi ham yaxshi ma'lumdir.

Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit-turk" asarida "Ardam bashi — til" ("Barcha fazilatlarning boshi tildir") degan maqol uchraydi. Demak, til va badiiy so'zning qudratiga qadim zamonlarda yaq qadodlarimiz alohida e'tibor berishgan. Adabiyot xalq, jamiyat hayotining o'ziga xos ifodasi hamdir. U jamiyat tarixidagi jiddiy o'zgarishlarni xilma-xil obrazlar vositasida turli badiiy shakllarda aks ettiradi. Shunga ko'ra, eramizning VIII asrlarigacha yaratilgan asarlarda qadimgi ajdodlarimizning urf-odat, e'tiqodlari ifodalangan bois, keyingi davrlarda islom ta'limoti bilan hamohanglik kuchayganligini kuzatish mumkin. Aktyorlik san'ati – (aktyor – lotincha aktor harakat, ijro, ya`ni ijrochi degan ma`noni bildiradi) aktyor ijrochiligi, teatr, kino, televideniye va radioda badiiy obraz yaratish san'ati. Aktyor ma'lum rolda o'ynar ekan, o'z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe'l-atvorini, ichki dunyosi va intilishlarini ifodalaydi. Bunda u pyesa, libretto yoki ssenariydagi mazmunni o'z ijodi, hayotiy tajribasi bilan boyitadi, jonlantiradi. Obraz yaratishda aktyorning nutqi, gavdasi, yuz va ko'z imo-ishoralari, tuyg'ulari, idroki asosiy vositalardir. Aktyor grim, libos, ba'zan niqobdan foydalanadi, gavdalantiradigan kishisi yoki boshqa mavjudotga yarasha xatti-harakat, ohang, imo-ishora topadi, ichki va tashqi tomonni bir-biriga uyg'unlashtiradi.

Matnshunoslikka oid adabiyotlarda qayd etilishicha, har qanday matn, u ilmiymi, rasmiymi, badiiymi – bundan qat'iy nazar, mantiq qoidalariiga asosan shakllanishi lozim. Izchillik ana shu



qoidaning birinchi talabidir. Matnda har bir so'z, har bir gap va abzatslar o'rtasida mantiqiy bog'lanish va izchillik bo'lishi lozim. Agar shunday bo'lmasa, matnni tushunish qiyin bo'ladi: O'rtoq Boqijon Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ustma-ust to'rt piyola choy ichdi va terladi. – Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, -dedi yuzidagi terni artib. – Hmm... soqol ham o'sipti, sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar edi. Maymun juni to'kilib, odam bo'lgan (Qahhor A. Adabiyot muallimi). Misoldagi Boqijon Baqoyevning biron ta gapi ham bir-biriga mantiqiy bog'langan emas. Matnda ba'zan bir-biriga zid gaplar berilib qoladi. Masalan: Havo bulut bo'ldi, lekin yomg'ir yog'madi. Ukam Toshkentdan keldi, ammo ikki kun turmasdan qaytib ketdi kabi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biriga zid bo'lsa ham, ular o'rtasida mantiqiy uzilish yo'q. Chunki osmonni bulut qoplasa ham, yomg'ir yog'magan bo'lishi yoki biron kishining kelsa ham, ko'p turmasdan ketib qolishi mumkin.

Xulosa:

Ushbu maqolada shuni xulosa qilib aytish mumkin. Drama bu ma'naviyat sarchashmasidir. Adabiyotning ta'sir kuchi nimada? U nimalarga bog'liq eknligi, buyuk yozuvchilar Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy ularning asarlari juda katta kasb etadi. VIII asrlargacha yaratilgan asarlarda qadimgi ajdodlarimizning urf-odat e'tiqodlari ifodalangan. Shu bois keying davrlarda Islom ta'limoti kuchayganligini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robyn Ewing (Author), John Saunders. The School Drama Book: Drama, literature and literacy in the creative classroom. Currency Press (March 18, 2019). 411 pages.
2. Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi, & Jumanova Shahnoza Ikromjonovna. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 661–663. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.672>
3. Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi, & Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 658–660. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.671>



4. Tojikarimova, M. A. qizi. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 824–828. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5106>
5. Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi, & Valiyeva Nargiza. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 637–639. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.665>
6. Tojikarimova , M. A. qizi. (2023). KONSTITUTSIYA NORMALARINI HAYOTGA TADBIQ ETISH VA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 1250–1253. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4639>
7. Jumanova, S. I., & Asqarova, D. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI O'STIRISHDA STEM TA'LIMINING O'RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 377-381.
8. Jumanova, S. (2022). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KUZ MOTIVI. Scientific journal of the Fergana State University, (2), 29-29.
9. Maxliyoxon, O., & Sohibaxon, V. (2024). BADIY O 'QISHNING BOLALARNING FIKRLASHIGA TA'SIRI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 10-14
10. Maxliyoxon, O., & Layloxon, M. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA TEATR-SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING SHAKLLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 15-20.
11. Maxliyoxon, O., & Nilufar, Y. L. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM SINFLARIDA YOD O 'QISH VA BADIY O 'QISHNING MUHIMLIGI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 46-51.
12. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, M. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI OMAVIY TADBIRLARGA TAYYORLASH USULLARI. YANGI O'ZBEKİSTONDA İJTİMOİY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 41-44.
13. Axadjon o'g'li, A. A., & Murotovich, M. F. (2023). RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT SIYOSATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 294-298.



14. GM Abdullaev Akhrorjon. (2023). O'zbekistonda islam moliyasini joriy etishdagi imkoniyat va istiqbollar. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1 ...
15. HA Abdullaev Akhrorjon. (2023). Islom moliyasidan keng foydalanish asoslari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1 ...
16. UI Abdullaev Akhrorjon, Akhmadjonov O. (2023). Islom moliyasida shartnoma turlari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI